

## AYOL VA JAMIYAT: HUQUQ, IMKONIYAT VA TENGLIK

**Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi,

**Burxonova E'zoza Farxod qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayol insoniyat tarixida oilaning va jamiyatning tayanchi, mehr va hayot manbai sifatida alohida o'rin tutishi ta'kidlanadi. Bugungi kunda ayollar siyosat, ilm-fan va iqtisodiyotda faol ishtirok etib, jamiyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shayotgani yoritiladi. Gender tenglik erkak va ayolning huquq, ta'lim, moliyaviy mustaqillik va ijtimoiy faoliyatdagi tengligini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, maqolada ayol huquqlarini himoya qilish diniy, huquqiy va ijtimoiy zarurat ekanligi hamda uning ta'lim va mehnat orqali imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatning haqiqiy taraqqiyotiga xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Ayol, huquq, gender tenglik, ta'lim, jamiyat, ijtimoiy rivojlanish, zo'ravonlik, diniy qadriyatlar, moliyaviy mustaqillik, taraqqiyot, siyosiy faollik, oila masalalari.

Insoniyat tarixida ayolning o'rni, qadri va mas'uliyati har doim eng yuksak mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayol — bu nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning tayanchi, mehr va hayot manbai, insoniyat sha'nining timsolidir. Diniy manbalarda, xususan Qur'oni karimda ayolning inson sifatidagi hurmati, onalik darajasining muqaddasligi va uning jamiyatdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. “Jannat onalar oyog'i ostidadir” degan hadisi sharif esa ayolning hayotdagi ahamiyatini so'zsiz isbotlovchi ilohiy haqiqatdir.

Bugungi globallashuv davrida ayol faqat oilaviy muhitda emas, balki ijtimoiy, siyosiy va ilmiy sohalarda ham faol ishtirok etmoqda. U rahbar, olim, o'qituvchi,

tadbirkor, siyosatchi va hatto davlat boshlig'i sifatida jamiyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, diniy-ma'naviy qadriyatlar ayolga shunchaki huquqlarni emas, balki ulug' mas'uliyatni ham yuklaydi — chunki ayol tarbiyalaydigan avlod orqali butun millatning taqdiri shakllanadi.

Gender bu xotin- qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm- fan sohalarida namoyon bo'ladi. Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarning o'z urzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligini ta'minlashdir[4].

Qadimgi davrda Suqrot, Arastu, Aflotun kabi yunon olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan adolat hukm surgan polisni va eng yaxshi qonunlar sifatida barcha tenglikni kafolatlagan qonunlarni nazarda tutgan. erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: „Tabiat barchani ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratdi, lekin odamlar insonni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqidilar“ deb ta'kidlagan. Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Farobiy „Fozil odamlar shahri“ asarida tenglik hukm surgan davlatni fozilikka intilgan davlat sifatida aytgan[5].

1791-yilda De Guj tomonidan tayyorlangan “Ayol huquqi deklaratsiyasi”da ilk bor ayollarning erkin fikrlash o'z fikrini bildirish huqqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tenglik- bu jins asosida istisnalarsiz huquq va imkoniyatlar, ya'ni erka va ayolning huquq va imkoniyatlarning tengligidir[2]. Gender tengligilini ta'minlash deganda jamiyatda qabulk qilinayotgan qarorlar, qurilayotgan ob'yektlar ham erkakka ham ayolga ularning o'ziga xoslikarini e'tiborga olgan holda foydqli bo'lishini nazarda tutadi.

Har bir jamiyatda erkaklar va ayollar moliyaviy mustaqillik, ta'lim va saxsiy rivojlanish uchun teng kuchga ega bo'lishi lozim. Ayolarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish gender tengligigga erishish muhim jihatidir. Bu ayolning

o'zini o'zi qadrlashi tuyg'usini, qaror qabul qilish qobiliyatini, imkoniyat va manbalardan foydalanish imkoniyatini o'z ichiga oladi. Shunga erkaklar va ayollar o'rtasidagi gender masalalari nafaqat ayol va erkak tengligi, balki jamiyatsdagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarga ham qaratilgan. Bu albatta erkaklar qaroriga bog'liq. Agar dunyoda ta'lim jarayonlariga nazar solsak, gender sohasida tenglikka erishishda olg'a siljiyotgan bo'lsa ham qizlarning maktabga bora olmasligi o'g'il bolalarga qaraganda yuqori foizni tashkil etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qizlarning chorak qismi maktabga bormaydi. Odatda imkoniyati cheklangan, bolalalri uchun kiyim- kechak xarajatlarini to'lashga qodir bo'lmagan oilalalar iloji boricha o'gil farzandlarini ta'lim olishiga e'tibor qaratmoqda. Oilada qizlarning mehnatidan ya'ni uy- yumush ishlarida , suv tashish va bolalarni parvarishlash qilish uchun foydalanishadi bu esa ularni o'qishdan cheklaydi. Kam bo'lmaganda ayollar bir kasbning qo'lini tutish kerak. Ammo, qizlarning ta'limiga kengroq e'tibor berish rivojlanayotga mamlakatlarda yuqori daromad kelishini ta'minlaydi. Bu esa har bir farzandini sog'lom dunyoga keltirishini va o'z farzandlarini maktabga yuborishi ehtimoli ko'proq[1].

Inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda. Ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ba'zi jamiyatlardagi ayollar uchun haqiqiy tenglik hali-hamon orzuligicha qolib kelmoqda. Ular huquqlarining cheklanishi va xo'rlanishida namoyon bo'layotgan diskriminatsiya qilish hollari ana shundan dalolat beradi.

Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o'z huquqlarining kamsitilishiga duch keladilar. Oilada qiz bolaning o'qishi, o'quv yurti yoki oliy o'quv muassasasini bitirishi hamda ijtimoiy hayotda qatnashishini taqiqlash va cheklash, ayolning homiladorligi yoki ko'p bolaliligi sababli ishga qabul qilmaslik, ayol bilan erkakning kasbiy qobiliyat va bilimdonlik darajalari baravar bo'lgani holda, ayolni emas, erkakni yuqori xizmat pog'onasiga ko'tarish, ayolni davlatni boshqarish ishlariga yaqinlashtirmaslik kabi hollarning barchasida ayol kishining insoniy

huquqlariga putur yetkazilgan bo'lad. Har qanday shaklda amalga oshiriladigan kamsitilish ayolni erkaklar ega bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib boradi.

Ayolning insoniy qadr-qimmatini poymol qiladigan zo'ravonlik xotin-qizlar huquqlarini kamsitishning eng xavfli shakli hisoblanadi. BMTning ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda millionlab ayollar jismoniy zo'ravonlik xavfi ostida yashaydilar. Xotin-qizlar shafqatsiz zo'ravonlik natijasida nafaqat mayib bo'ladilar, hattoki hayotdan ko'z yumadilar. Xotin-qizlarga qarshi zo'ravonlik "haddan tashqari chetga og'ish" sifatida baholandi, u xotin-qizlarga jismoniy, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Holbuki, inson huquqlari, erkakmi yoki ayolmi, o'g'il bolami yoki qiz bola ekanligidan qat'i nazar, har bir shaxs ega bo'ladigan huquqlardir[6].

Davlatlar o'zlarining demokratik tusda ekanligi haqidagi nufuzni saqlab qolishni xohlar ekan, ularga inson huquqlarini e'tirof etish va rioya qilish borasida qo'yiladigan zamonaviy talablarni e'tiborga olish kerak bo'lad. Bu ularning haqiqiylikni sinaydigan mezonidir. Xotin-qizlarga nisbatan namoyon qilinadigan kamsitish va zo'ravonlik muammosi hozirgi vaqtda ham jamiyatning diqqat-e'tiborini jalb qilib turgan eng keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Ayollar huquqlari buzildi, degan tushuncha inson huquqlari buzildi, degan tushunchani beradi. Vaholanki, ayollarning huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko'rib chiqilmagan taqdirda, ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo'lar edi. Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo'ravonlik, ayollarning aynan ayol bo'lganligi bois ham ba'zi huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi.

Afsuski, barcha jamiyatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik mavjud. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik zo'ravonlikning bir turi bo'lib, so'z bilan haqorat qilishdan boshlab, og'ir tan jarohatini yetkazish, tahdid va nomusga tegish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik psixologik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy kabi ko'rinishlarga Ayollarga nisbatan siyosiy, fuqarolik va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy



hayotda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada, shuningdek, jins belgisi bo'yicha kamsitishning barcha shakllariga barham berish jamiyatning birinchi galdagi vazifalaridir. Bunday muammolar, ayniqsa, XXI asrga kelib insoniyatni ko'proq tashvishga solmoqda. Teng huquqlikni ta'minlash borasida 1967- yil Komissiya Deklaratsiyasi shartnoma tayyorlay boshladi. 1975- yil BMT tashabbusi bilan Xalqaro- xotin qizlar yili deb e'lon qilindi va kamsitish bo'yicha konvensiya tayyorlab qabul qilish tavsiya etildi. BMT Bosh Assambleyasining 1979-yil 18-dekabrda 34/18- sonli Rezolutsiyasi bilan qabul qilindi va 1980-yil 3-sentabrda kuchga kirdi, u 30 moddadan iborat[3].

Shu o'rinda aytish mumkinki, Amerika Qo'shma Shtatlari CEDAWni ratifikatsiya qilishdan voz kechgan yagona davlatdir. Sudan, Somali, Eron singari davlatlar-inson huquqlarinidan eng ko'p buzilishi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda Ayolning jamiyatdagi o'rne va huquqlari har qanday davlatning adolat mezonini hisoblanadi. Diniy manbalarda ayolning sha'ni yuksak qo'yilgan bo'lib, Qur'oni karimda ayolga teng inson sifatida munosabatda bo'lish, uning mol-mulk, ta'lim, nikoh va merosdagi huquqlarini himoya qilish qat'iy buyurilgan. Bu jihatdan Islom dini ayol huquqlarining eng qadimgi himoyachisi sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Biroq huquqning mavjudligi yetarli emas — uni amalda ta'minlash, ayolning ovozini eshitish, unga ta'lim va mehnat orqali o'z imkoniyatini ro'yobga chiqarish sharoitini yaratish zarur. Chunki haqiqiy taraqqiyot bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki ayol va erkak huquqlarining amalda tenglashuvidir.

Shunday ekan, ayol huquqlarini ta'minlash diniy buyruq, huquqiy burch va ijtimoiy zarurat sifatida qaralishi lozim. Ayolni e'zozlaydigan, uning mehnatini qadrlaydigan, ovozini eshitadigan jamiyatgina haqiqiy taraqqiyotga erisha oladi. Ayol huquqi himoya qilingan joyda — inson sha'ni, adolat va tinchlik hukm suradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Isomiddinova R. O'zbekiston ayollar huquqlari va gender tengligi. // "Tadqiqotlar" jurnali, 63(2)–son. 2025. 13-14-b.
2. Mirkomilova Z., Shaxs erkinligi va gumanistik huquq. Toshkent. Tamaddun. 2014. 32-b.
3. Mo'minov A. R., Tillaboyev M. A., Inson huquqlari. Toshkent. 2013. 331-334-b.
4. Muslim Women's Activism in USA: Politics of Diverse Resistance Strategies Religios (MDPI open acces journal). 2022. p. 11-12.
5. Qosimova N., Alimova N., „Gender va media“. Toshkent 2022. 5-7, 43-b.
6. Rahmanov U., Jo'rayeva F. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ayollar huquqlari. // "Innovative Development in Educational Activities" jurnali. 2024. 8-11-b.